Filologiya fanlari
Berdiyeva Nazira Uralovna
TerDU mustaqil izlanuvchisi

Бердиева Назира Ураловна
Независимый исследователь Термезского государственного университета

Berdieva Nazira Uralovna
Independent Researcher, Termez State University

ADABIY-BADIIY XRONOTOPDA MAKON VA ZAMON BELGILARNING NAMOYON BO‘LISHI

ПРОЯВЛЕНИЕ ПРОСТРАНСТВЕННЫХ И ВРЕМЕННЫХ МАРКЕРОВ В ЛИТЕРАТУРНО-ХУДОЖЕСТВЕННОМ ХРОНОТОПЕ

THE MANIFESTATION OF SPATIAL AND TEMPORAL MARKERS IN THE LITERARY-ARTISTIC CHRONOTOPE

Annotatsiya: *Murod Muhammad Do‘st asarlarida o‘z estetik idealiga mos adabiy tipni ilm ahli orasidan izlaydi. Ilmga sho‘ro mafkurasi manfaat nuqtai nazaridan yondoshib uzoq yillar davomida yo‘l qo‘yilgan tarixiy xatoni Toshpo‘lat obrazi orqali tuzatmoqchi bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar*: qissa, qahramon, ideal, adabiy tip, xronotop, makon, zamon, prozaik asar, ruh, adabiyot.*

Аннотация: *В своих произведениях Мурод Мухаммад Дуст стремится найти в среде научного сообщества литературный архетип, воплощающий его эстетический идеал. Через образ Тошпулата автор пытается исправить историческую ошибку, сохранявшуюся на протяжении многих лет вследствие утилитарного подхода советской идеологии к науке.*

Ключевые слова: *повесть, главный герой, идеал, литературный архетип, хронотоп, пространство, время, прозаическое произведение, дух, литература.*

Abstract: *In his works, Murod Muhammad Dust seeks to find a literary archetype within the scientific community that embodies his aesthetic ideal. Through the character of Toshpulat, the author attempts to rectify a historical error that persisted for years due to the Soviet ideology’s utilitarian approach to science.*

Keywords: *novella, protagonist, ideal, literary archetype, chronotope, space, time, prose work, spirit, literature.*

Kirish.

Yangi ijtimoiy davr yozuvchilarga to‘la erkinlik berdi. Endi yozuvchi obraz yaratayotganda qahramonlarini ijobiy va salbiyga ajratib o‘tirishi shart emas. Har bir adabiy tip taqdirida insonga xos fazilatlarni ham, insoniylikka dog‘ tushiradigan nuqsonlarni ham badiiy obrazga ko‘chirishi mumkin. Yangicha badiiy tafakkurga xos mezon shundaki, tarixiy voqelik soxtalashtirilmasligi, balki ro‘y-rost o‘z

bahosini olishi, soxta ko‘tarinkiliklardan holi bo‘lmog‘i lozim. Toshpo‘lat Samad va unga o‘xshaganlarning xatolarini xiyonat timsolida ochib tashlaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Asarda musulmon o‘zbek ayolining umumlashma adabiy tipi yaratilgan. Biz Mas’umaning o‘z uyida Toshpo‘lat bilan suhbatidan har qanday og‘ir sharoitda ham qaddi bukilmaydigan, irodali, sevgida sadoqatli inson obrazini tasavvur qilamiz.

Qissada yana ikki ayol – Inara va Mas’uma obrazi ham o‘rin olgan. Ular sadoqatli, vafodor ayollardir, dunyoning barcha moddiy ne’matlaridan mehr-oqibat, sadoqat, or-nomusni ustun qo‘yadilar. Toshpo‘latning Inaraga bo‘lgan sadoqati yoki Samadning qizchasi bahonasida uy egalariga aytgan gaplari yozuvchining badiiy tip yaratishdagi mahoratidan dalolatdir. Yozuvchi Murod Muhammad Do‘st Toshpo‘lat obrazida davr fojialarini ko‘rsatish bilan bir sirada unga xos bo‘lgan shaxsiy chizgilarni ham ochib beradi. Bu Toshpo‘latning opasi bilan bo‘lgan suhbatida yaxshi tasvirlangan:

« — Shunday qil, uka, — keyin sen o‘zingga tinchroq bir amal topsang bo‘larmidi.

— Menda amal yo‘q, opa, amalsiz yashamoqchiman.

Amaling bo‘lsa, odamlar rost gapni aytmay qo‘yadi.

— Yo‘q, — dedi Opa. — Sen biror amal topgin. Otamning otini tutib o‘tasan, o‘rni yo‘qolsa bo‘lmaydi.

— G‘irromliksiz yashashning o‘ziyam kifoya. Menga shundan boshqa amal yo‘q, opa.

— Bor ekan, Turdiboy aytdi.

— Yo‘q, opa, Ermat cho‘loqning bolasi menga oshiqcharoq narx qo‘yibdi. U sizlarga yoqishni o‘ylagan, qolganini ering ikkoving to‘qib-bichgansizlar.

— Nima, og‘irimiz tushib qoldimi?

— Yo‘q, opa, buning tarixi uzoq, sen bari bir tushunmaysan.

— To‘g‘ri, sen biz nodonlarni tinglab nima qilarding!..

Opa tag‘in tumtayib oldi. [5; B.47.].

Uka va opa o‘rtasidagi sahna kitobxon qalbini larzaga soladi. Yozuvchining xarakter yaratishdagi mahorati yanada chuqurlasha boradi. Buni ukaning opasi oldidagi mas’uliyati, uning kelajagiga qayg‘urishi, lekin ilojsizligi asoslab berilgan. Qahramonlar harakati tasvirida haqiqatga zid biron lavha uchramaydi. Biz barcha manzaralar va obrazlar tasvirida yangi badiiy tafakkur qirralarini ko‘ramiz.

Muhokama. Buyuk faylasuf Aflotun “Har kim g‘azabnok ruhni eng buyuk hissi bilan birlashtirishi zarurdir. Boshqa odamlar tomonidan sodir etiladigan og‘ir, tuzalishi qiyin va hatto umuman bedavo adolatsizliklardan qutilishning faqat bitta vositasi bor: bu fikr bilan kurashish, daf etish, g‘alaba qozonish va ularni beayov jazolashdir, deb yozadi. [1; B.140.]. M.M.Do‘st qissada g‘alaba qozonish uchun Aflotun taklif etgan vosita – mujassam asarning o‘q ildizini tashkil etgan, desak yanglishmagan bo‘lamiz.

Qissa tarkibidagi voqealar butun bir tizimni tashkil qiladi. “Avtor yaxlit asarni yaratgan ijodiy shaxs, u asar doirasida mustaqil hokimlikka ega. Uning ongi,

ovozi, nuqtai nazari bilvosita asar tarkibiy elementlarida aks etadi. Prozaik asarda avtor ongining asosiy ifoda formalari qahramon hikoyachi, bayonchidir.

Qahramon- bevosita nutq sub'ekti, asarda shaxsiy hayoti, tarjimai holiga oid ma'lumotlar xarakterining barqaror belgilari bilan namoyon bo'ladi. Qahramon o'zini harakatda ko'rsatadi. U ma'lum tarixiy davr hayotining konkret sohasiga muvofiq bo'lgan insonning konkret individual obrazidir.

Hikoyachi- prozaik asarda bayon egasi, yozuvchining nutqiy samarasi. Hikoyachi- asarning psixologik va bayon markazi. Uning asarda tasvirlanayotgan voqealarga munosabati shaxsiyatli, tuyg'uli, faktlar va kishilarga yondoshish baholi sub'ektivdir. Hikoyachida avtorning ma'naviy shaxsiyatiga yaqinlik mavjud bo'ladi. Biroq uni barcha hikoyachilarga bab-baravar taalluqli deb bo'lmaydi. Chunki avtor ba'zan o'zining ma'naviy shaxsiyatiga zid bo'lgan hikoyachidan ham o'zini-o'zi fosh etish maqsadida foydalanadi. Jumladan, asar bosh qahramoni-hikoyachi salbiy obraz sifatida yaratilgan asarlarda hikoyachida avtorning ma'naviy - olamiga yaqinlik bor deb aytish mushkul". [6; B.118-119.]. Adabiy qahramon voqealar rivojiga qarab o'zgarib turadi. Ko'rinadiki, qissanavis va qahramon nutqida ham yozuvchi mahoratining o'ziga xos qirralari alohida ajralib turadi.

Adabiyot va hayotdagi o'zgarishlar haqida: "Adabiyotda yangi bosqich, yuksalish hamisha yangi qahramon bilan yangi ijodiy individualliklarning paydo bo'lishi bilan boshlanadi.

Yangilik eskilik zaminida tug'iladi, u bilan birga yashaydi, ba'zan u bilan bahslashadi, ba'zan esa murosaga kirishadi. Insonni badiiy bilish va aks ettirish jarayonidagi ziddiyatning boisi xuddi shundadir", - deb fikr bildiradi N.Vladimirova. [8; B.39.].

Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida yangi qahramonlar yuzaga keldi. Ijtimoiy hayotda bo'lgani kabi, adabiyotda ham eskilik bilan yangilik o'rtasidagi konfliktlar shu davr adabiyoti mavzularidan birini tashkil etdi. O'zbek prozasining yetakchi janrlaridan hisoblangan qissachilikni ham bu mavzu chetlab o'tmadi. Konfliktlarning vujudga kelishida sub'ektiv va ob'ektiv omillar sabab bo'ladi. Chunki, hayotda yuz bergan o'zgarishlar odamlar tafakkurida silliq kechmaydi.

XX asrning 80-90- yillar o'zbek qissachiligiga yosh, zabardast adiblar kirib keldi. Ular realistik qissachiligimizni faqat miqdoriy jihatdan boyishini emas, balki sifatiy jihatdan rivojlanishini ham ta'minladilar. X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul, Sh.Bo'tayevlar ana shularning eng faol namoyandalari hisoblanadi.

O'tgan asrning 80-90- yillari o'zbek qissachiligi tarixida alohida burilish davri bo'ldi. Birinchidan, ayni shu davrda o'zbek qissachiligiga Murod Muhammad Do'st, Tog'ay Murod, E.A'zamov, X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul, Sh.Bo'tayev kabi yosh iste'dodli qalamkashlar ushbu badiiy shaklda ancha samarali ijod qilishdi. Bu o'zbek nasrining badiiy maydonini boyitish bilan birga, uning musaffoligini ta'minlashga ko'mak berdi. Bu adiblar o'z qissalariga dolzarb badiiy muammolarni olib kirdilar. Garchi ular uslubiy yo'nalishlari, g'oyaviy - badiiy qamrovi nuqtai nazaridan bir-birlaridan alohida farqlanib tursalar ham, ammo

janrning ana shu davrlaridagi ijtimoiy-badiiy faolligini ta’minlash jihatidan olg‘a qo‘yilgan bir qadam bo‘ldi.

Adabiyotga har bir yozuvchi, shoir o‘z uslubi bilan kirib keladi. Yozuvchi uslubi o‘quvchiga qanchalik yaqin bo‘lsa, u shunchalik muxlislarga ega bo‘ladi. To‘g‘ri, hozir ham adabiyotimizda zamonaviy uslub, badiiy uslub degan tushunchalar mavjud. Yozuvchining uslubi bu avvalo, uning o‘ziga xosligi, tasvir madaniyati, “o‘z meni” va hayotni teran anglashga bog‘liq bo‘lgan hodisa. Qissa janridagi qissanavis obrazini “Hech qachon yozuvchi shaxsiyati bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Badiiy so‘z individualligi qissanavisga nisbatan muayyan xarakterni ifodalash vositasi vazifasini bajaradi”. [7; B.97.].

Uslubda ijodkorning butun ijodi, qobiliyati namoyon bo‘ladi. Ayni paytda yozuvchi mahoratini ham belgilaydigan mezon hisoblanadi. Bu o‘z navbatida qissanavis obrazining yorqin chiqishini ta’minlaydi. Gap shundaki, qissanavis obrazini yozuvchi maxsus yaratmaydi. U o‘z-o‘zidan yaraladi. Lekin uning qanday bo‘lishi yozuvchi mahorati va o‘zligini qanday namoyon etishiga bog‘liq. Shu jihatdan u mutlaqo alohida obraz bo‘lib, asar tarkibidagi obraz personajlardan tubdan farq qiladi. M.Baxtin yozganidek, “Agar ushbu obraz haqqoniy va teran bo‘lsa, u tinglovchi-kitobxonga shu muallif asarini to‘la chuqurroq tushunishga yordam beradi”. [2; B.405.].

Yozuvchi qalamga olayotgan mavzuni atroflicha tahlil qiladi, har bir obrazni shakllantirish uchun butun mahoratini ishga soladi. Bu jarayonda yozuvchi qobiliyati nimalarga qodirligi namoyon bo‘ladi. Ayni paytda asardagi har bir voqea, tasvir, xarakter yozuvchi dunyoqarashidan dalolat beradi. Shundagina yozuvchi mahorati asarning badiiyligini oshirishga xizmat qiladi. Uning inson xarakterini yaratishdagi san’ati asar mazmuniga singib ketadi. Bu o‘z navbatida qissanavis obrazining yorqin chiqishiga xizmat qiladi.

Murod Muhammad Do‘stning “Galatepaga qaytish” qissasi polifonik tasvir printsiplariga rioya qilishi, ijtimoiy-siyosiy hayot va shaxs munosabati, shaxs va umuminsoniylik kontseptsiyasining yangi tarixiy davr voqeligida tutgan o‘rni hamda ahamiyati nuqtai-nazaridan alohida e’tiborga loyiq.

Ko‘chib yuruvchi qahramon bevosita muallifning “men”i bilan bog‘liq, unda yozuvchining estetik ideali ham, shaxsiyati ham, olislarda qolgan bolaligi ham, tarjimai holi ham mujassamlashgan.

Ma’lumki, xronotop muammosi falsafaning, unga yondosh sotsiologiya, geologiya, siyosatshunoslik, etika va estetika fanlarining munozarali masalalaridan sanaladi. “Xronotop” mazmunan makon va zamon mohiyatini anglatib, olis-yaqin makonlarning (tarixiy davrlarning, bugunning) masalalari va ularning zamon bilan (aynan bugungi, biz yashab turgan davr bilan) aloqadorligini, hatto, kelgusi istiqbol zamoni bilan bog‘liqligini, hamnafasligini, daxldorligini anglatuvchi, mohiyatan murakkab ijtimoiy siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy masala kabi tushuniladi. Ayni vaqtda badiiy adabiyot san’at asarlariga ham bevosita daxldor ekanligi bilan muhimdir. Mantiqan bilish mumkinki, adabiyot san’atning tasvirlash ob’ekti ham ayni shu tarix, mamlakat, el-yurt (ya’ni makon) va uning olis yaqin, bugungi davr (zamon) bilan bog‘liq asosi hisoblanadi. Adabiyotshunoslik va estetika fanida badiiy makon,

badiy zamon (badiiy xronotop) masalasini o‘rganish, umumlashtirish ancha murakkab muammolar sirasiga mansubdir. Masalan, Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanida Hirot, Xuroson muzofotlari (tarixiy davri) hayoti, mashhur siymolari (Jomiy, Navoiy, Boyqaro kabi) faoliyati qalamga olinar ekan, bularning bugungi zamon bilan aloqadorligi, ahamiyati, ibrati, fojiasi kabi g‘oyaviy maqsadlar asar talqinida namoyon bo‘lishi lozim.

Adabiy-badiiy xronotopda makon va zamoniy belgilarning namoyon bo‘lishi anglashga va aniqlikka tutashadi. Bunda vaqt tovlanadi, qorishadi, badiiy kuzatishga evriladi; makon esa takomillashadi, davr, syujet, tarix faoliyatiga intiladi. Zamon xususiyatlari makonda voqe bo‘ladi. O‘z navbatida makon vaqt birligida anglashiladi va o‘zgaradi. [3; B.121-122.].

Natijalar. Badiiy asarda mikromakon va makromakon uyg‘unligi haqidagi qarashlar istiqlol davri adabiyotshunosligida muhim tadqiqotlarga sabab bo‘ldi. Bu yo‘nalishdagi salmoqli tadqiqotlardan biri adabiyotshunos U.Jo‘raqulovning “Alisher Navoiy “Xamsa”sida xronotop poetikasi” deb nomlangan monografiyadir. [4; B.176.]. Olimning mazkur doktorlik dissertatsiyasida Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi janr, kompozitsiya, syujet, obraz muammolari tarixiy janrlar kontekstida xronotop nazariyasiga ko‘ra asoslandi. “Xamsa” navoiyshunoslikning oldingi bosqichlarida tarixiy poetika aspektida yaxlit sintetik janr sifatida kuzatilmagandi.

San’at asari sifatida mustaqil borliq bo‘lgan har bir romanni muallif badiiy falsafasi, odam va olamga munosabati, xayolot dunyosining qamrovi, hayotiy vaziyat-holatlarni baholash tarzi, roman kompozitsiyasi, xronotopi, poetik ifoda usullari, qahramon hissiy-intellektual dunyosida sodir bo‘lgan evrilishlar e’tiqodiy asosi, badiiy tasvir vositalari nuqtai-nazaridan o‘rganish lozim. “Noan’anaviy” sanaluvchi romanlardagi eng muhim jihat – adibning qahramon tushgan ziddiyatli va tartibsiz vaziyat-holatga hayotiy yechim topishi, uning umidini so‘ndirmasligidir.

Xulosa. Makon va zamon uyg‘unligi badiiy asarda ijodkor kontseptsiyasini, g‘oyaviy maqsadini keng epik ko‘lamda ifodalash imkonini beradi. Masalan, “Jinoyat va jazo”dagi asosiy voqealar Rossiyada, eng ko‘pi Sankt Peterburgda kechadi, bu umumiy makon. Lekin turli kechmish, qahramonlar hayoti bilan bog‘liq yana 60 ta romaniy makon ham bor. Yigirmadan ortiq dunyoga mashhur shaxslar: Napoleon, Mak, Gogol, Pushkin, Darvin, Turgenev, Russo, Sharl Fure, Dobrolyubov, Belinskiy, Rodichev, Rafael, Shiller, Madonna, Russo Livingston, afsonaviy Zevs, Axilles nomlari ham roman falsafasini yanada chuqurlashtirish, ko‘lamdor, ta’sirchan qilishda, aniq bir maqsad bilan qo‘llangan. Zikr etilgan shaxslar nomi ostida butun bir murakkab, romaniy qismatlar tarixi yashiringan. [9; B.24.].

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Афлотун. Қонунлар. – Т.: Янги аср авлоди, 2002. https://kitobxon.com/uz/yozuvchi/aflotun_(platon)
2. Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. М., 1975. https://imwerden.de/publ-11035
3. Бахтин М. литературно критические статьи. М.: Хужественная литература, 1986. https://vk.com/wall-125090030_205
4. Жўрақулов У. Алишер Навоий “Хамса”сида хронотоп поэтикаси. – Филол. фан. д-ри... дисс. – Т., 2017. https://inlibrary.uz/index.php/autoabstract/article/view/71119#google_vignette
5. M. M. Do‘st. Galatepaga qaytish yoxud saodatmand G‘aybarov rivoyati. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodly uyi, 2009-y. https://qr.natlib.uz/file/read/e49e969e-420b-440f-a07d-386567251a2e.pdf
6. Носиров Ў. Автор образи ҳақида. //Ижодкор шахс, бадиий услуб, автор образи. -Т.:, "Фан" нашриёти, 1981. https://zenodo.org/records/10645026
7. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. -М., Учпедгиз, 1955. https://imwerden.de/publ-17105
8. Владимирова Н. 60-йиллар ўзбек ҳикоянавислигида услубий оқимлар //Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва услублар ранг-баранглиги. – Т.: Фан, 1983. https://api.ziyonet.uz/uploads/books/731991/5944c8cfa9a55.pdf
9. Ғаниев И. Достоевскийни тушуниш ёки мангу бедорлик сири. Тошкент, Фан,2006. https://www.facebook.com/groups/badiiy/posts/6409752192426499/